

## KITOBXONLIK TARG‘IBOTIDA YANGICHA YONDASHUV

**O‘quvchilarga bilim berishda, avvalo ularda umuminsoniy qadriyatlar, odob-axloq tushunchlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bu fazilatlar bilan bezangan bilim samarali va doim foydali bo‘ladi. Ulug‘ mutafakkir ajdodlarimiz ilmiy-ijodiy merosi, g‘oyalari asrlar oshsada hanuz dolzarb va qadrli ekanligi shundan. Kitobga oshnolik esa barcha bilimlarning kalitidir.**

Dunyodagi eng mashhur liderlar, olamshumul ixtiro egalari, zo‘r kashfiyotchilar kitobxon ekanligini bilasizmi? Chunki kitob mutolaasi ruhni chiniqtiradi. Ruhi baquvvat insonlar esa buyuk ishlarga qodirdir. Masalan, “Apple” korporatsiyasi asoschisi Stiv Jobs o‘zining kitobxon ekanini, qayta-qayta mutolaa qiladigan ko‘plab sevimli asarlari borligini e’tirof etgan. Shunday ekan, bugun turli yo‘nalishlarda o‘z iqtidorlarini namoyon qilayotgan yoshlarimiz boz ustiga kitobxon ham bo‘lishi nur ustiga a’lo nurdir.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabimizda o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlik madaniyati oshirish, kitobxonlikka rag‘bat uygo‘tish maqsadida “Birgalikda o‘qiymiz” an’anaviy adabiy musobaqasini o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan. Musobaqa ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. Albatta, bu musobaqaning vaqti va o‘tkazilish tartibi o‘quv yili boshida tasdiqlanadigan maktab Ona tili va adabiyot fani uslubiy birlashmasining yillik ish rejasiga kiritiladi. O‘quv yili boshida o‘quvchilarga yil davomida o‘qilishi zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati berilganda qaysi sinf qaysi sanada musobaqada ishtirok etishlari ma’lum qilinadi. Musobaqaning sentyabr oyidan boshlanmasligining sababi - asarni o‘qib chiqish uchun ma’lum vaqtning kerakligidir.

Maktabda har sinf 6 tadan bo‘lgani uchun musobaqa 6 ta jamoa o‘rtasida o‘tkaziladi. Sinf o‘quvchilari ro‘yxatdagi asarlar ichidan bitta asarni tanlab olib, shu asar bo‘yicha musobaqaga tayyorlanadi. Albatta, o‘quv yili davomida ro‘yxatdagi barcha kitoblar o‘qilib, topshirilishi zarur. Ammo musobaqada targ‘ib qilish uchun tanlangan asar to‘liq o‘qilishi, atroflicha tahlil qilinishi va boshqalarni shu asarni o‘qishga targ‘ib qila oladigan bo‘lishi lozim.

“Birgalikda o‘qiymiz” musobaqasining birinchi talabi - tanlangan asarning butun sinf o‘quvchilari tomonidan to‘liq o‘qib chiqilishi. Shuningdek, sinf rahbari ham kitobni o‘quvchilari bilan birga o‘qib chiqishi va musobaqaga qadar o‘quvchilari bilan asar yuzasidan “Adabiy munozara” tashkil etishi kerak bo‘ladi.

Musobaqa 3 shart asosida tashkil etiladi:

**Birinchi shartda** sinf o‘quvchilari tanlagan badiiy asarlari yuzasidan taqdimot (videorolik, audio yoki boshqa ko‘rinishda bolishi mumkin, bunda o‘quvchilar axborot texnologiyalari bo‘yicha olayotgan bilimlaridan foydalanib, o‘zlari ijod qiladi. Taqdimotda “Booktrailer” loyihasidan foydalanishlari ham mumkin) tayyorlaydi. Bu o‘qilgan asar targ‘iboti bo‘yicha birinchi va asosiy qadam hisoblanadi.

Asar shunchaki emas, his qilish va tasavvurni rivojlantirish uchun o‘qilishi lozim. Kitob mutolaasi jarayonida har kuni asar voqealari ustida tahlil olib borish, o‘quvchilardan qaysi o‘rindagi voqealar ularni qayta o‘qishga majbur qilganini so‘rab borish muhim. Musobaqa bejizga “Birgalikda o‘qiymiz” deb nomlanmaganini ham o‘quvchi anglashi kerak. Har bir o‘quvchi asarni o‘zicha tasavvur qiladi, talqin qiladi va tahlil qiladi. Birgalikda tahlil qilish o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantiribgina qolmay, ularni voqelikka tog‘ri baho berishga va asar qahramonlari xatti-harakatini xolis baholashga ham o‘rgatadi.

Munozaradan keyin musobaqa shartlari uchun o‘quvchilar tayinlanadi va ularga yo‘riqnoma beriladi. Jumladan, asar bo‘yicha qilinadigan taqdimotni tayyorlashda kerakli materiallarni yig‘ish va saralash hamda ulardan videorolik tayyorlash uchun o‘quvchilar tanlanadi.

Guruhlar avvalo o‘qigan asarlaridan kelib chiqib o‘zlariga nom tanlaydilar va bu nomni musobaqadan oldin hakamlar hay‘atiga taqdim etadi. ( Devoriy gazeta va emblema tayyorlash - ixtiyoriy, ya’ni, bo‘lsa, qo‘shimcha ball beriladi, bo‘lmasa ball olinmaydi).

Musobaqaning **ikkinchi sharti** - asar yuzasidan beriladigan 5 ta savolga javob berish. Bunda jamoaning tahlilga eng kuchli va nutqi ravon o‘quvchilardan 6 nafari ishtirok etadi. Albatta, asar yuzasidan beriladigan savollar ham faqat faktga asoslangan, bir so‘z bilan javob beriladigan emas, ko‘proq asarning tahlili asosida kelinadigan xulosaga asoslanishi kerak. Bu savollar hakamlar hay‘ati tomonidan beriladi. (Avvaldan berilgan guruh nomlariga tablichkalar qilinadi va har bir guruhga o‘z tanlagan asari yuzasidan savollar tuziladi).

**Uchinchi shart** – eng qiziqarli shart. Bunda asar yuzasidan sahna ko‘rinishi namoyish etiladi. Sahna asarini tayyorlashda o‘qituvchilar ham ishtirok etishlari mumkin, bu hamkorlik hatto, qo‘llab-quvvatlanadi. Asarni birga o‘qish, asardan eng qiziqarli yoki ta’sirli o‘rinni tanlash, shu asosda ssenariy yozish kerak bo‘ladi. Sahna asari ijrosiga ham talablar qo‘yiladi. Qahramonning ko‘rinishi, xatti-harakati va hissiyotlarini namoyish eta olish - bir so‘z bilan aytganda rolga kirishish kerak.

Musobaqa so‘ngida hakamlar guruhlarining o‘qib, o‘rgangan asarlari yuzasidan bajargan topshiriqlariga qo‘yilgan ballarni umumlashtirilib, natijalarni e‘lon qiladilar. G‘olib guruh “Eng kitobxon sinf” nomiga munosib deb topiladi va “Faxriy yorliq” hamda kitoblar bilan taqdirlanadi.

Maktabda “Birgalikda o‘qiymiz” musobaqasi Ma’naviyat bo‘limi bilan birgalikda tashkillashtiriladi.

Bugun yoshlar tarbiyasida kitob va kitobxonlikning o‘rni beqiyos. Davlatimiz tomonidan yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib o‘sishi uchun olib borilayotgan yoshlar siyosati negizida **Besh muhim tashabbus** turganini unutmasligimiz kerak. Ta’kidlash kerakki, ushbu dasturdagi kitobxonlik madaniyatini oshirish boshqa bandlardagi vazifalarga o‘z-o‘zidan zamin yaratadi.

“Birgalikda o‘qiymiz” musobaqasi nafaqat o‘quvchilarning tarbiyasi va odobini shakllantirishga, balki o‘rganayotgan bilimlarini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

**Sabohat RAHIMOVA,**  
**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi**  
**ixtisoslashtirilgan maktab**  
**ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi**